

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI**

**XUSHMURODOV FARRUX MIRZOMURODOVICH**

**QASHQADARYO HAVZASI VOHALARI AGROLANDSHAFTLARINING  
CHO‘LLANISH JARAYONINI TADQIQ QILISH VA  
XARITALASHTIRISH**

**11.00.01 – Tabiiy geografiya**

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand - 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Xushmurodov Farrux Mirzomurodovich**

Qashqadaryo havzasi vohalari agrolandshaftlarining cho‘llanish jarayonini tadqiq qilish va xaritalashtirish ..... 3

**Хушмуродов Фаррух Мирзомуродович**

Картографирования и исследования процессов опустынивание оазисных агроландшафтов Кашкадарьинского бассейна ..... 21

**Khushmurodov Farrukh Mirzomurodovich**

Mapping and research of desertification processes in oasis agricultural landscapes of the Kashkadarya basin ..... 41

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 44

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI**

**XUSHMURODOV FARRUX MIRZOMURODOVICH**

**QASHQADARYO HAVZASI VOHALARI AGROLANDSHAFTLARINING  
CHO‘LLANISH JARAYONINI TADQIQ QILISH VA  
XARITALASHTIRISH**

**11.00.01 – Tabiiy geografiya**

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand - 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Gr165 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o‘zbek, rus, ingliz (резюме) Ilmiy kengashining veb sahifaning ([www.samdu.uz](http://www.samdu.uz)) va «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan

**Ilmiy rahbar:**

**Suyunov Abdusali Samatovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Yarashev Quvondiq Safarovich**  
geografiya fanlari doktori, dotsent

**Toshov Xudoynazar Ramazonovich**  
geografiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Navoiy davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «21» iyul soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Muqimiy ko‘chasi, 45 uy. Tel.: (95) 410-20-10, faks: (0366) 239-19-36; E-mail: [ik-geografiya@mail.ru](mailto:ik-geografiya@mail.ru) Samarqand davlat universiteti).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№\_\_raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 233-60-87.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2023-yil “\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**S.B.Abbasov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, g.f.d., professor

**B.A.Meliyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash kotibi, geografiya  
fanlari bo‘yicha (PhD)

**A.Abdulqosimov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, g.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda inson xo'jalik faoliyatining oqibatlarini bilan bog'liq muammolar dolzarb bo'lgan hozirgi kunda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda geotizimlarni ekologik holatini yaxshilash masalalari alohida ahamiyatga ega. Bu muammolarni olidini olish, ularga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMTning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish bo'yicha dasturining 15-maqsadi 15.3, 15.5-bandlarida "Quruqlik ekotizimlarini muhofaza qilish va tiklash, ulardan oqilona foydalanishga ko'maklashish, cho'llanishga qarshi kurashish, yerlarning yemirilishini to'xtatish va ortga qaytarish, bioxilma-xillikni yo'qolib ketishi jarayonini to'xtatish"<sup>1</sup> ga qaratilgan vazifalarida belgilangan. Mazkur muammolarni yechimini topishda cho'llanishga qarshi kurashish, yerlarni degradatsiyaga uchrashini oldini olish, ekotizimlarini asrash hamda geotizimlarning ekologik holatini yaxshilash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahon miqyosida sug'oriladigan yerlarda iqlim sharoiti o'zgarishi natijasida cho'llar maydonini kengayishini, tuproq-meliorativ holatini buzilishi, tuproqlarni sho'rlanishi, deflyatsiya, eroziya jarayonlarni kengayishi, iqlim isishi davrida baland tog'lardagi muzliklarning intensiv erishi bilan bog'liq holda daryolarning suv rejimini o'zgarishi, natijada yerosti suv sathining ko'tarilishi kabi salbiy tabiiy geografik jarayonlarni o'rganishga alohida ahamiyat berilmoqda. Shuningdek, landshaftlar o'zgarish dinamikasiga tabiiy omillarning ta'sirini gidrogeologik, meteorologik va masofadan zondlash orqali kosmik sur'atlarni tahlil qilish, GAT texnologiyalari asosida modellashtirish jarayoni orqali xo'jalikda landshaft komplekslaridan majmual va samarali foydalanishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Respublikamizda sug'oriladigan yerlardan, adir landshaftlaridan ilmiy asosda foydalanish borasida ko'plab maqsadli innovatsion dasturlar ishlab chiqish, modernizatsiyalashga doir kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" va uni 2022-yilda amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasini tasdiqlashni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti loyihasi" dasturida "Respublika hududida amalga oshiriladigan xo'jalik va boshqa turdagi faoliyatlarining ekologik talablarga muvofiqligini belgilash"<sup>2</sup> yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, inson xo'jalik faoliyatini landshaftlarga ta'siri va landshaftlardagi antropogen o'zgarishlar hamda ularning iqlim va yer osti suvlari bilan aloqadorligini tadqiq etish, baholash, monitoring qilish hamda ularni optimallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 2021-yil 24-

---

<sup>1</sup>2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi kun tartibi/Elektron dostup:<http://www.uz/undp/org/content/Uzbekistan.ru>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

fevraldagi PQ-5006-son “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan foydalanish va muhofaza qilish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-apreldagi №199-son “Suv resurslaridan oqilona foydalanish va suv xo‘jaligi obyektlaridan foydalanish borasida davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublikada VIII. “Yer haqidagi fanlar” va V. “Qishloq xo‘jaligi, kichik hududlar tabiiy geografiyasi, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi“ mavzusidagi tadqiqotlar bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Tadqiqot landshaftshunoslikning amaliy va metodologik asosi landshaftlar rivojlanishida iqlim va yerosti suvlari ta’siri hamda geoekologik tahlili, geologiya, iqlim, yerusti va yerosti suvlari, tuproq, o‘simlik va hayvonot olamining kompleks tabiiy geografik o‘rganilishi bo‘yicha ko‘p yillar davomida tadqiqot ishlari olib borilgan yetakchi olimlarning asarlari va g‘oyalari asosida yoritilgan. Jumladan, chet ellik olimlardan D.H.Newsome, K.Runge, C.Conrad, M.Rahmann, M.Machwitz, J.Ahern, G.G.Landsberg, Starr S.Frederick, J.C.Rodda, R.P.Morgan, A.S.Kostrowiki, E.O.Neef, J.Mc-Closkey, A.Michael, V.B.Mihno, G.I.Shvebs, T.J.Logan, W.H.Wischmeir, V.N.Bevz va boshqalar tadqiqot ishlarini olib borishgan.

MDH mamlakatlarida V.I.Kuznetsov, M.V Sergeyeв, M.P Lisenko, B.F.Kosov, K.P.Vockpecenckiy N.I. Palupan, M.SH.Ishankulov, A.N.Ivanov, A.N.Kashtanov, F.N.Lisitskiy, K.N.Dyakonov, A.V.Drozdov, F.Kobchenko va boshqalarning tadqiqot ishlarida iqlim va yerosti suvlarini landshaftlarga kompleks ta’siri, sug‘oriladigan yerlar landshaft-meliorativ holati, sug‘oriladigan yerlarni antropogen omil ta’sirida o‘zgarishi o‘rganilgan.

Respublikamiz bo‘yicha kompleks tabiiy geografik tadqiqotlar L.N.Babushkin, N.A.Kogay, A.Abdulqosimov, Y.Sultonov amalga oshirishgan bo‘lsalar, hozirgi kunda iqlim va yerosti suvlarini B.A.Kamolov, V.YE.Chub, E.I.Chimbarisov, F.H.Hikmatov, R.Begmatov, B.D.Abdullayev, D.G‘.Yunusov, I.R.Soliyev, geoekologik holatini O.Mirzamahmudov, O.Abdug‘aniyev, K.M.Boymirzayev, Q.S.Yarashev va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. Shuningdek, geotizimlardagi geoekologik vaziyat, uning inson salomatligiga ta’siri masalalari A.A.Abdulqosimov, A.A.Rafiqov, L.A.Alibekov, A.N.Nigmatov, M.U.Umarov, S.Nishanov, H.Vahobov, A.Maqsudov, S.B.Abbasov, A.Rahmatullayev, V.A.Rafiqov, N.Komilova, S.Abdullayev, M.Nazarov hamda kartalashtirish masalalari E.Safarov, T.Mirzaliyev, A.S.Suyunov va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda mamlakatimizda landshaftshunoslik nuqtayi nazaridan tabiiy geografik rayonlashtirish, ularni geoekologik holatini optimallashtirish masalalarini o‘rganishga qaratilgan. Lekin mazkur tadqiqot ishlarida sug‘oriladigan agrolandshaftlarda sodir bo‘layotgan cho‘llanish jarayoni yetarlicha yoritib berilmagan. Shuningdek, agrlandshaftlarni kartalashtirish

masalalari Qashqadaryo vohasi misolida alohida tadqiq etilmagan. Mazkur dissertatsiya ishi aynan shu ilmiy-amaliy masalalarni tadqiq etishga bag'ishlangan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti ilmiy tadqiqot ishlar rejasining Yevropa ittifoqi tomonidan e'lon qilingan Erasmus+ 585718+EPP-1-2017-1-HUEPPKA2-CBHE-JP «DSinGis: Geoinformatika sohasida doktorantura» (2017 - 2020 yy.) mavzusidagi xalqaro loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** Qashqadaryo vohasining agrolandshaftlarini mavjud ilmiy konsepsiyalar asosida tasniflash, ularning asosiy shakllanish xususiyatlarini ta'riflash, agrolandshaftlardan foydalanishni optimallashtirishda cho'llanish omillarining vujudga kelishi masalalarini hamda ularni kartalashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Qashqadaryo vohasini sug'oriladigan maydonlari sizot suvlarining sho'rlanganlik, chuqurlik, melioratsiya holati kartalarini yaratish;

sug'oriladigan maydonlarni tuproq sho'rlanganlik va cho'llanish tiplari kartalarini yaratish;

cho'llanishni rivojlanish jihatlarini ilmiy asoslash orqali uni oldini olish chora-tadbirlari ishlab chiqish;

Qashqadaryo vohasini sug'oriladigan maydonlarida sodir bo'layotgan cho'llanish jarayonini kuchayishi hamda uning oqibatlarini tahlil qilish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida Qashqadaryo vohasi agrolandshaftlarining cho'llanish xususiyatlari olingan.

**Tadqiqot predmeti** vohadagi agrolandshaftlarning shakllanish xususiyatlarini aniqlash, tavsiflash, baholash hamda mavjud geoekologik vaziyatini optimallashtirishdan iborat.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada kompleks geografik dala tadqiqotlari, geografik taqqoslash, kartografik, aerokosmik, moddellashtirish, landshaft indikatsiya, statistik, geomorfologik, geobotanik, geoinformatsion moddellashtirish (GAT moddellashtirish) kabi metodlardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

1:100000 masshtabdagi Qashqadaryo vohasini sug'oriladigan maydonlari sizot suvlarining sho'rlanganlik, chuqurlik, meliorativ holati kartalari yaratilgan;

sug'oriladigan maydonlarni tuproq sho'rlanganlik va cho'llanish tiplari kartalari yaratilgan;

agrolandshaftlarda yer va suv resurslaridan foydalanishni hududiy tashkil etish, cho'llanishni rivojlanish jihatlarini ilmiy asoslash orqali uni oldini olish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan;

ilk bor tadqiqot olib borilgan hududda bo'layotgan cho'llanish jarayonining dinamik o'zgarishlari komponentlar (evapotranspiratsiya, tuproq, yerusti va osti suvlari, antropogen) darajasida asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

amaliyotga tavsiya etilgan ilmiy xulosalar va ishlab chiqilgan chora-tadbirlar landshaftlarini ekologik jihatdan optimallashtirish, landshaft-ekologik sharoitini yaxshilashning asosiy yo'nalishlari asoslangan;

tuzilgan kartalar agrolandshaftlarni boshqarishda, tabiatidan oqilona foydalanish chora-tadbirlarini ilmiy asosda amalga oshirishda muhim omil ekanligi asoslangan;

turli xil sug'oriladigan maydonlaridan oqilona foydalanish uchun zarur (sizot suvlari sho'rlanganlik, sizot suvlari chuqurlik, meliorativ holati, tuproq sho'rlanganlik va landshaftlarining cho'llanish tiplari) kartalari yaratilgan;

sug'oriladigan maydonlarida sizot suvlarini minerallashtirish darajasining agrolandshaftlarga ta'siri aniqlangan hamda ularni oldini olishga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan;

qishloq xo'jaligi boshqarmalari, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyatida foydalanish uchun sug'oriladigan maydonlarining landshaft-ekologik vaziyatlari baholangan va Qarshi cho'li misolida baholangan;

sug'oriladigan maydonlarda landshaft-ekologik vaziyatlarni vujudga keltiruvchi yetakchi omillar aniqlangan va shu asosda landshaft-ekologik vaziyatni optimallashtirishni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

hududdagi geoekologik vaziyatni optimallashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiya ishi natijalari va xulosalarining ishonchliligi unda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi hamda uning hududiy bo'limlari, O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi, Qashqadaryo viloyatining statistik axborotnomasi, Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jalik boshqarmasi ma'lumotlaridan foydalanilgani, Qashqadaryo viloyatida olib borilgan dala-tadqiqotlari asosida bajarilganligi hamda tadqiqot natijasida yaratilgan kartalar, nazariy ishlanmalar, xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarning ilmiy ahamiyati dissertatsiyadagi ilmiy-nazariy xulosalar, tavsiyalar, kartografik va boshqa birlamchi materiallar, Qashqadaryo vohasida agrolandshaftlarini ajratish, tavsiflash, qishloq xo'jaligi maqsadida baholash, cho'llanish jarayonlarining atrof-muhitga salbiy ta'sirini bartaraf etish maqsadida qat'iy nazorat ostiga olib, ular bilan bog'liq muammolarni bartaraf qilishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Qashqadaryo vohasining yer - suv resurslaridan samarali foydalanish dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, Qashqadaryo vohasi tabiiy resurslarini muhofaza qilish qishloq xo'jalik faoliyatini hududiy tashkil etishni takomillashtirishda katta ahamiyatga egaligi, mazkur ishning daliliy va statistik ma'lumotlari, foydalanilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlar Qashqadaryo viloyati melioratsiya va yer - suv qishloq xo'jalik boshqarmasi bo'limi tomonidan foydalanishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Qashqadaryo vohasi agrolandshaftlarining cho'llanish jarayonini tadqiq etish va kartalashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

yaratilgan 1:100 000 masshtabdagi Qashqadaryo vohasini sug'oriladigan maydonlari sizot suvlarining sho'rlanganlik, chuqurlik, melioratsiya holati, tuproq sho'rlanishi va cho'llanish tiplari kartalaridan O'zbekiston Respublikasi Suv



xo'jaligi vazirligi amaliyotida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining 2023-yil 14-iyundagi 03/37-1815-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, viloyat hududidagi sho'rlangan va melioratsiya tadbirlariga muhtoj yerlarni operativ aniqlash imkonini bergan;

agrolandshaftlarda yer va suv resurslaridan foydalanishni hududiy tashkil etish, cho'llanishni rivojlanish jihatlarini ilmiy asoslash orqali olingan natijalar va ishlab chiqilgan chora-tadbirlardan O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining 2023-yil 14-iyundagi 03/37-1815-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, yer va suv resurslaridan foydalanishni to'g'ri tashkil etish, rejalashtirish va ekin sxemalarini optimal variantlarda ishlab chiqish imkonini bergan;

cho'llanish jarayonini dinamik o'zgarishlariga oid olingan natijalardan O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi amaliyotida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining 2023-yil 14-iyundagi 03/37-1815-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Qashqadaryo viloyatida cho'llanish darajasini tezkor tahlil qilish hamda unga qarshi kurashish strategiyasini ishlab chiqish imkonini yaratgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 17 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, shundan 4 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning matn qismi 120 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Landshaftlarni tadqiq etishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida landshaftlarni tadqiq-etishning ilmiy va nazariy asoslari, antropogen landshaftlar shakllanishining mazmun-mohiyati, agrolandshaftlar tushunchasi va tadqiq etish metodlari hamda landshaftlarda iqlim o'zgarishi va cho'llanishning mazmun-mohiyati batafsil yoritilgan.

Agrolandshaft inson tomonidan yaratilgan va insonning qishloq xo'jaligi faoliyati ta'siri ostida shakllangan. Binobarin, u hududni tashkil qilish va qishloq xo'jaligi tizimini tashkil etuvchi elementlar agrolandshaftning tuzilishida aks

ettirilishi kerak. Bu bizga agrolandshaftdagi salbiy jarayonlarning rivojlanishini aniqlash va bashorat qilish va zarur bo'lganda ularni yanada sig'imli va ekologik barqaror agroekotizimlarni yaratishga moslashtirish imkonini beradi. Yerning unumdorligini saqlab qolish uchun agrolandshaftda ekin maydoni va namning nisbati muhim rol o'ynaydi.

Dissertatsiyaning **“Qashqadaryo havzasi voha landshaftlari tizimida agrolandshaftlarning shakllanishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida Qashqadaryo vohasining landshaft hosil qiluvchi omillari, viloyat lalmikor va yaylov yerlari - agrolandshaftlar obyekti sifatida hamda Qashqadaryo vohasi yer usti suvlari va gidrogeologik sharoitining agrolandshaftlarni shakllanishiga ta'siri va Qashqadaryo vohasida agroirrigatsion landshaftlarning shakllanishi va rivojlanishining geografik tavsifi ochib berilgan.

Tuproq-iqlim sharoitlariga ko'ra Qashqadaryo viloyatida 0,7-0,8 mln. ga maydon lalmikor agrolandshaftlar dehqonchilikda foydalanilishi mumkin. Lalmikor dehqonchilik uchun hozirgi paytda yaylovlar va pichanzorlar sifatida foydalanilayotgan tog'lar va adirlardagi bo'z tuproqlar o'zlashtirilishi mumkin. Ammo, adirlar va tog'li rayonlarning relyef sharoitlari yer resurslaridan lalmikor dehqonchilikda foydalanishni imkoniyatlarini cheklaydi.

### 1-jadval

#### **Qashqadaryo viloyatida lalmikor yerlarning namlanishga ko'ra mintaqalanishi**

<b>№</b>	<b>Mintaqalar</b>	<b>Namlanish sharoiti</b>	<b>Balandligi metr hisobida</b>	<b>Yillik yog'in miqdori (mm)</b>
1.	<b>Tekislik mintaqasi</b>	<b>Nam bilan ta'minlanmagan zona</b>	<b>250-450</b>	<b>250-300</b>
2.	<b>Adir mintaqasi</b>	<b>Chala ta'minlangan</b>	<b>450-750</b>	<b>250-300</b>
3.	<b>Tog'oldi mintaqasi</b>	<b>Nam bilan ta'minlangan</b>	<b>750-950</b>	<b>350-400</b>
4.	<b>Tog' mintaqasi</b>	<b>Nam bilan yetarli ta'minlangan</b>	<b>950-2000</b>	<b>400-750 va undan ortiq</b>

Lalmikor agrolandshaftlar vertikal zonallik qonuniga asosan o'zgarib boradi, hamda tuproq va iqlim sharoitlariga ko'ra, namlanish sharoitiga qarab mintaqalarga ajratiladi (1-jadval).

To'yinish, litologiya va geomorfologiya omillarining birikmasiga ko'ra Qashqadaryo havzasini gidrogeologik jihatdan quyidagicha ajratish mumkin:


1) tog' etagi shleyflarida sizot suvlari atmosfera yog'inlari va soylarda oqimlar suvlarining infiltratsiyasi hisobiga hosil bo'ladigan;

2) Qashqadaryo o'ng sohilining to'liqinsimon tekisliklari – sug'orilmaydigan joylardagi atmosfera infiltratsion suvlari va soy oqimlarining suvlaridan to'yinadigan sizot suvlari;

3) Qashqadaryo chap sohilining to'liqinsimon tekisliklarida sizot suvlarining to'yinishi sug'orish suvlari va atmosfera yog'inlari infiltratsiyasi hisobiga bo'ladi, shuningdek, konus yoyilmalaridan keladigan yer osti oqimi ham ancha muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida ta'kidlanganidek, arid iqlim muhitida joylashgan Qashqadaryo vohasi sharoitida, tabiiy bug'lanish yuqori bo'lganligi uchun yerosti sho'r suvlarining intensiv bug'lanishidan tuproqda tuzlar to'planib, yerlarni sho'rlanish darajasi ortishiga olib keladi. Bunday holda, ayniqsa, obikor dehqonchilik qilinadigan yerlarning meliorativ holatini barqaror holatda saqlash asosiy muammolardan biridir. Binobarin, sho'rlanishga qarshi kurash tadbir choralari qo'llamasdan, yerlarning meliorativ holatini yaxshilamasdan qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori hosil yetishtirish mushkul.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida shu aniqlandiki, Kasbi va Muborak rayonlari vohaning eng arid mintaqasida joylashganligi sababli, ushbu hududlarning sug'oriladigan yerlarida sho'rlanish, shamol va suv eroziyasi, grunt suvlari sathining ko'tarilishi kabi hodisalar keyingi vaqtlarda katta maydonlarda ro'y bermoqda. Hozirgi paytda bu rayonlarda tuproq va yerosti suvlarining minerallashuvi oshgan, buning oqibatida esa qayta sho'rlanish yuzaga kelmoqda.



**1-rasm. Qashqadaryo vohasida sug'oriladigan maydonlarining sizot suvlari sathi chuqurligi kartasi**

Qashqadaryo vohasi agroirrigatsion landshaftlarida o'ziga xos mikroiklim sharoitlari vujudga keladi: mikroiklim 2,0 – 3,0 m balandlikka qadar o'zgaradi. Sug'orish natijasida hududning radiatsiya balansi haydalgan va sug'oriladigan yuzalar albedosi miqdorining kamayishi hisobiga ortadi, bundan tashqari sug'orish tufayli yuza haroratining pasayishi natijasida tuproqlarning samarali (effektiv) nur taratishi ham kamayadi, namlik miqdori ortadi. Arid iqlimli Qarshi cho'lida sug'orish tufayli bug'lanish uchun issiqlik sarfining oshishi kuzatiladi. Masalan, Qashqadaryo vohasining tekislik qismida yanvarning o'rtacha harorati,  $-0.1-1.1^{\circ}\text{S}$ , iyulning o'rtacha harorati  $30-31.5^{\circ}\text{S}$ , haroratning absolyut minimumi,  $-25.-27^{\circ}\text{S}$ , absolyut maksimum,  $+50^{\circ}\text{S}$ , gidrotermik (namlanish) koeffitsiyenti Selyaninov bo'yicha  $0.10-0.17$ , vegetatsiyali qishlar 7 % ni tashkil etadi.

Agroirrigatsiya landshaftlarining buzulishiga katta ta'sir ko'rsatadigan tabiiy – antropogen jarayonlar orasida qayta sho'rlanishni bartaraf qilish yoki cheklashga doir melioratsiya ishlarini kuchaytirish lozim. Masalan, Qarshi cho'liin o'zlashtirish bosh sxemasi ma'lumotlariga ko'ra cho'l hududlaridagi 16,3 ming ga yer melioratsiya talab qilmaydi, 220 ming ga yer yengil, 471,2 ming ga yerda o'rtacha va 337,5 ming ga yerda tub meliorativ tadbirlar o'tkazilishi lozim ekanligi ko'rsatilgan edi.

Qashqadaryo havzasining o'rta va quyi oqimlariga ularning eng katta massivlari to'g'ri keladi. Keyingi yillarda viloyatdagi sug'oriladigan yerlar maydonining kengayishi meliorativ holatini yaxshilashni talab qiladigan yerlar maydoni ham kengayishiga sabab bo'lmoqda.

Qashqadaryo vohasi yer fondi va uning tarkibidagi tuzilmaviy o'zgarishlarni tahlil qilish, ularning asosiy va ustivor yo'nalishlarini aniqlash agrolandshaftlardan samarali foydalanish va madaniy landshaftlarni tashkil etishda muhim o'rin tutadi (1-rasm). Bu esa Qashqadaryo vohasidagi mavjud yerlardan oqilona foydalanish, dehqonchilikni rivojlantirishda va uning unumdorligini saqlab qolishda katta rol o'ynaydi.

Qashqadaryo vohasi ham qadimdan sug'oriladigan va sug'orma dehqonchilik rivojlanib borgan hududlardir. Vohaning sug'oriladigan dehqonchilik zonalarida qishloq xo'jaligiga suv eroziyasi, shamol eroziyasi, gravitatsion jarayonlar, sel hodisalari, loyqa bosishi, botqoqlanish, sho'r bosish, qatqaloq hosil bo'lishi kabi tabiiy geografik jarayonlari eng ko'p salbiy ta'sir ko'rsatishini kuzatish mumkin.

Qashqadaryo vohasida vujudga kelgan degradatsiyalashgan yerlar qishloq xo'jalik ekin maydonlariga, yaylovlarga va ekosistemalarga katta zarar yetkazmoqda. Shuningdek, hudud tabiatiga antropogen ta'sirning kuchliligi landshaft– ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda hamda ekotizimlarning o'zaro modda va energiya almashinuvida va muvozanatini buzulishiga sabab bo'lmoqda.

Dissertatsiyaning **“Qashqadaryo havza vohalari agrolandshaftlariga cho'llanish jarayonining ta'siri va ulardan samarali foydalanish masalalari”** deb nomlangan uchinchi bobida Qashqadaryo vohasi hududining agrolandshaftlarida cho'llanishni kartalashtirish, Qashqadaryo vohasi agrolandshaftlarida cho'llanishni tadqiq etish va tavsiflash, Qashqadaryo vohasi agrolandshaftlaridan foydalanishning hozirgi holati va Qashqadaryo vohasi agrolandshaftlari imkoniyatlaridan samarali foydalanish va ularni muhofaza qilish masalalari yoritilgan.

GAT yordamida statistik ma'lumotlar alohida, kartografik manbalar alohida yig'ilib, so'ngra qayta ishlanadi. Kartografik ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, ma'lumotlar bazasini tuzish bo'yicha xorijiy va respublikamiz olimlari tomonidan qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bugungi kunda barcha sohada jumladan, kartalashtirishda mutaxassislar asosan GAT oilasiga mansub dasturiy ta'minotlardan foydalanib kelishmoqda. Chunki, GAT texnologiyasi yordamida karta va planlarni yaratish, ularni qayta ishlash va ma'lumotlarni integratsiyalash ishlari GATning asosiy vazifalaridan biri sifatida qabul qilingan.

Landshaftlarni kartada ifodalash o'rganilayotgan hududning tabiiy xususiyatlarini ochib beradi, ammo agrolandshaftlar xo'jalik faoliyatining mavjudligi bilan farq qiladi. Shu sababli agrolandshaftlarning har birida o'tkaziladigan tadbirlarni hisobga olish zaruriyati tug'iladi, almashlab ekish dalalari, ekinlarning turlari, agrotexnik va meliorativ tadbirlar ifodasini topadigan yer tuzish kartalari ham boshlang'ich materiallar bo'ladi. Karta ilmiy asoslangan holda hududdan foydalanish, tabiat muhofazasini yaxshilashga va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashga doir amaliy tadbirlarni oshiriladigan sharoitlarda agrolandshaftlarni o'rganishga yordam beradi.

Bizning fikrimizcha, agrolandshaftlarni ajratishga ularning asosiy xususiyati – tabiiy-antropogen hosila ekanligi uchun ular strukturaviy-genetik tasnif nuqtayi nazaridan qaralmog'i lozim. Bunday tasnifda tabiiy landshaftlarni tasniflanganidek asosiy taksanomik birliklar (bo'limlar, qatorlar, oilalar, sinflar, xillar, turlar) bo'ladi. Agrolandshaftlarning V.M.Chupaxin tomonidan taklif qilingan tasnifida ularning tabiiy-qishloq xo'jalik sistemasi sifatidagi xususiyatlari e'tiborga olingan. U agrolandshaftlarni sinf, kichik sinf, zonal tip va turlarga ajratadi. Tog' va tekislik sinflari doirasida dala, bog', aralash (bog'-dala) va o'tloq– yaylov landshaftlarining to'rtta kichik sinfi ajratiladi. Agrolandshaftning har bir zonal mintaqa tipi, masalan, chala cho'l dala landshafti, cho'l dala landshafti, dasht dala landshafti turli tuproqlarga, agroiqlim resurslariga ega va muayyan agrotexnik usullarga muhtoj bo'ladi.

## 2-jadval

### Qashqadaryo viloyatining qishloq xo'jalik yerlari tuzilmasi yillar kesimida

Ko'rsatkichlar	2016 yil	2017 yil	2018 yil	2019 yil
<b>Mavjud umumiy yer maydoni</b>	<b>2856,8</b>	<b>2856,8</b>	<b>2856,8</b>	<b>2856,8</b>
Jami qishloq xo'jaligi korxonalar va tashkilotlari egalik qilgan hamda vaqtincha foydalanadigan yer maydoni	2146,9	2144,7	2144,2	2322,8
<i>Shundan:</i>				
<b>Haydaladigan yerlar</b>	<b>679,1</b>	<b>678,4</b>	<b>676,1</b>	<b>675,7</b>
<i>Shundan:</i>				
Sug'oriladigan yerlar	515,4	515,1	514,6	417,3
Qo'p yillik daraxtzorlar	37,5	37,1	37,1	38,9
<i>Shundan:</i>				
Bog'lar	18,5	18,4	18,4	20,2
Tokzorlar	10,0	9,9	9,9	9,9
Tutzorlar	8,9	8,7	8,6	8,7
Ko'chatzorlar	0,2	0,2	0,2	0,2
Bo'z yerlar	21,9	21,9	21,9	21,9
Yaylovlar	1408,4	1407,3	1407,3	1407,3
Aholi tomorqa yerlari	79,8	79,9	80,0	80,2

*Eslatma. Jadval viloyat statistika boshqarmasining ma'lumotlari asosida tuzilgan.*

Sug'oriladigan yerlar Qashqadaryo havzasining deyarli barcha landshaftlari uchun xos bo'lsa-da, ularning eng katta massivlari Qashqadaryoning o'rta va quyi

oqimlariga to'g'ri keladi. Viloyatning tog'li hududida sug'oriladigan yerlar asosan katta-kichik daryolarning vodiylarida joylashgan. Sug'oriladigan yerlarning katta qismi Qarshi cho'li doirasidagi Koson, Nishon, Kasbi va boshqa tumanlarga to'g'ri keladi. Kasbi, Mirishkor va Nishon tumanlarida ekinzorlar sug'oriladigan yerlarning 100% ini, Muborak tumanida 94,0% ini, Koson tumanida 85% ini tashkil etadi.

Qashqadaryo vohasining sug'oriladigan va sug'orib dehqonchilik qilish imkoni bo'lgan tuproqlarning asosiy maydoni boniteti 60 balldan yuqori tuproqlardir. Bu ko'rsatkich viloyatda sug'orma dehqonchilikni rivojlantirish uchun yetarli va yaroqli yer zahiralari mavjud ekanligini ko'rsatadi. Ammo, viloyatda sug'orib dehqonchilik qilish uchun yaroqli yerlarni o'zlashtirish suv resurslarining tanqisligi bilan bog'liq.

Sug'orma dehqonchilik bir qator salbiy ekologik oqibatlariga sabab bo'ladi va cho'llanishga olib keladi. Ulardan asosiylari:

- sug'orish (irrigatsion) eroziya;
- tuproq agroirrigatsion madaniy qatlaminig to'planishi;
- tuproq-gruntning ikkilamchi sho'rlanishi;
- grunt va tuproqning zaxlashi (botqoqlashuvi);
- yer ustiva yer osti suvlarining ifloslanishi;
- daryolarning sayozlashuvi;
- joy relyefining cho'kishi.

Qarshi cho'li yer resurslaridan foydalanish, ya'ni uni sug'orish orqali kelib chiqayotgan salbiy jarayonlardan yana biri – irrigatsion eroziyasining tarqalganligidir.


Tadqiqotlar asosida olingan ma'lumotlarida ko'ra, Qashqadaryo vohasi qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar tarkibida chirindi juda kam (0,40 % gacha) va kam (0,41-0,80 %) tuproqlar viloyatdagi haydaladigan yerlarning 80% ini tashkil etadi. Ushbu holat ayniqsa Qarshi cho'li doirasidagi sug'oriladigan yerlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Qashqadaryo vohasi sug'oriladigan yerlarining deyarli 2/3 qismi va sho'rlangan yerlarning katta qismi cho'l hududlariga to'g'ri keladi. Shu bilan birga Mirishkor, Muborak, Nishon tumanlarida gipslashgan tuproqlarning mavjudligi va keng miqyosida o'zlashtirilishi natijasida yerlarning chirindi miqdorining kamayishiga, yer usti yuzasining cho'kishiga va qishloq xo'jaligida foydalanish samarasini kamayishiga olib kelmoqda.

Xulosa o'rnida, Qashqadaryo vohasi tabiatidan foydalanish va uni muhofaza qilishni strategik rejalashtirish barqaror rivojlanishning muhim vositasi hisoblanadi. Qashqadaryo vohasida agrolandshaftlardan foydalanishni optimallashtirishda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: yer tuzilishi va faoliyatining maqbul darajada shakllanishi va saqlanishi, qishloq xo'jaligining landshaftlari zarur xilma-xilligi va barqarorligini ta'minlash; sug'orma dehqonchilikda tomchilatib sug'orishni amalga oshirish; chorva mollarini yaylovlarda boqishni oqilona tashkilashtirish bilan hududda o'simlik o'sishi miqdorini meyorda saqlash; aholi tomonidan buta va daraxtlarning kesilishini oldini

olish; yer osti boyliklarini qazib olishda foydalaniladigan texnikarlarning harakatlanishini tartibga solish; zovur va drenajlardan samarali foydalanishni amalga oshirish; landshaftlarda tabiiy senozlarni tiklash va saqlashni ta'minlaydi. Zero, qishloq xo'jaligida ekinlarni almashlab ekish, meliorativ va agrotexnik tadbirlarni tashkil qilish natijasida tuproq sifati yaxshilanib cho'llanishni oldini olish imkonini yaratadi. Tuproqlarni sho'r bosishini va yer unumdorligi va ekin hosilini oshirilishini, ya'ni cho'llanishni oldini olish uchun insonlarda tabiatga bo'lgan munosabatini o'zgartirilsa, ekologik bilimni oshirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Qashqadaryo vohasining sug'oriladigan yer maydonining 1915-2020- yillar davomida o'zgarish diagrammasi (2-rasm.)ni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, keyingi yillarda qurg'oqchilik, cho'llanish va ikkilamchi sho'rlanish natijasida sug'oriladigan yer maydonlari kamayib bormoqda, buni quyidagi ma'lumotlardan bilish mumkin.




**2-rasm. Qashqadaryo vohasining sug'oriladigan yer maydoni (1915-2020 yy.)**  
(Manba; Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasidan olingan ma'lumotlar)

Shamol eroziyasiga o'simliklar tomonidan himoya yetarli darajada yo'qligi turli ekologik sharoitlarni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, cho'l shamol ta'siriga moyil joylardir. Bu yarim-quruq va davriy qurg'oqchilik joylarda kundalik deflyatsiya sekin kechadi, lekin muntazam ravishda tuproqni yo'q qiladi. Shamol eroziyasi - yerning tanazzulga uchrashining sababi quruq va yarim quruq yaylovlar- eroziyaga olib keladigan jarayonlardan biridir.

Bu hududlarda ikki kunlik shamol eroziyasi jarayonlari joylarda 25 sm gacha qalinlikdagi tuproqni ko'chirib ketib, katta maydonlarda ekinlarni nobud qiladi. Tuproqning shamol eroziyasi orqali jiddiy ekologik muammo bo'lib, ko'pincha tuproq degradatsiyasining og'ir shakllariga olib keladi. Qashqadaryo vohasida tarqalgan, sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanadigan tezligi kuchli shamol esib, chang bo'ronlarini keltirib, ekinlarga zarar keltiradigan zonada deflyatsiya jarayonlarga qarshi agrotexnik va lisomelarativ tadbir chora to'g'risida ilmiy

tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Shamol eroziyasi tufayli havoga ko‘tarilgan chang-to‘zon atrof-muhitini ifloslantirib, odamzod, hayvonot dunyosiga zarar yetkazadi.



### 3-rasm. Qashqadaryo vohasining cho‘llanish tiplari kartasi

Qashqadaryo vohasida tarqalgan, sug‘orma dehqonchilik bilan shug‘ullaniladigan yerlarda kuchli tezlikdagi shamol esib, chang bo‘ronlar ekinlarga zarar keltiradigan zonada deflyatsiya jarayonlariga qarshi agrotexnik choralar to‘g‘risida ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirish zarur.

Shuni ham aytish joizki, kuchli tezlikdagi shamollar qaysi oyda necha marta esishini bilish alohida ahamiyatga ega, chunki kuzning oxiri, qish va erta bahorda atmosferadan tushgan yog‘indan tuproq nam bo‘lib, uni shamol ko‘tarishi qiyin bo‘ladi. Undan tashqari ko‘pchilik chopiq talab ekinlar (boshoqlilardan tashqari) asosan mart oyining oxiridan boshlab ekiladi. Shuning uchun mart-iyun oylarida esadigan, kuchli tezlikdagi shamollar zararli hisoblanadi.

